



IDEOLOGY AND ITS IMPACT ON THE SOCIAL-POLITICAL LIFE OF SOCIETY

Shodiya Saydaliyeva

Senior lecturer, Department of History, PhD

Kimyo International University in Tashkent

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: saydaliyevashodiya427@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, ideology, society, political life, ideological factors, national ideology, political culture, ideal images, enemy images.

Received: 19.01.25

Accepted: 21.01.25

Published: 23.01.25

Abstract: This article analyzes the impact of globalization and ideology on the social-political life of society. Special attention is given to the study of ideology, its structural components, and practices. The article examines how ideology and ideological categories are explored within the framework of philosophy and political science, their influence on societal development, as well as their role in maintaining political and moral stability. The significance of ideological categories, philosophical and ideological concepts in social life is discussed, highlighting the important role of national ideology and its positive impact on the development of political culture in society.

MAFKURA VA UNING JAMIYAT IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTIGA TA'SIRI

Shodiya Saydaliyeva

“Tarix” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: saydaliyevashodiya427@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: globallashuv, mafkura, jamiyat, siyosiy hayot, mafkuraviy omillar, milliy mafkura, siyosiy madaniyat, ideal obrazlar, dushman obrazlar

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va mafkuralarni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’siri tahlil qilingan. Shu bilan birga mafkura, uning tarkibiy qismlari va amaliyotini o‘rganish ahamiyatiga urg‘u berilgan. Shu bilan birga maqolada mafkura va mafkuraviy kategoriyalar falsafa va siyosatshunoslik fanlari doirasida tadqiq

etilishi, ularning jamiyatdagi rivojlanishga ta'siri, shuningdek, jamiyatdagi siyosiy va ma'naviy barqarorlikni saqlashdagi roli talqin etilgan. Maqolada mafkuraviy kategoriyalar, falsafiy va ideologik tushunchalarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati yoritilgan, buning ortidan milliy mafkura va uning ijobiy ta'siri jamiyatning siyosiy madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi yoritib berilgan.

ИДЕОЛОГИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ ОБЩЕСТВА

Шодия Сайдалиева

Старший преподаватель кафедры «История»

Ташкентский международный университет Кимё

Ташкент, Узбекистан

E-mail: saydalievashodiya427@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, идеология, общество, политическая жизнь, идеологические факторы, национальная идеология, политическая культура, идеальные образы, образы врага.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние глобализации и идеологии на социально-политическую жизнь общества. Особое внимание уделено изучению идеологии, её структурных компонентов и практики. Рассматривается, как идеология и идеологические категории исследуются в рамках философии и политологии, их влияние на развитие общества, а также роль в поддержании политической и нравственной стабильности. В статье раскрывается значение идеологических категорий, философских и идеологических понятий в социальной жизни, подчеркивается важная роль национальной идеологии и её позитивного воздействия на развитие политической культуры общества.

Hozirda jahon davlatlarining globallashuv jarayoniga tortilishi ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bilan o'zini yaqqol namoyon etmoqda. Jumladan, turli mafkuralarning mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sirining yuqoriligi yashayotgan davrimizning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Dunyo miqyosida mafkuraviy omillarning fuqarolar ongiga va jamiyat barqarorligiga ta'siri mikro – bir mamlakat, mezo – bir mintaqahamda makro – global xarakter kasb etmoqda. Bu esa hozirda globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish mexanizmlarini aniqlashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borishni kun tartibiga qo'yimoqda.

“Mafkura” tushunchasi fanda chuqur tahlil qilingan tushunchalardan biri hisoblanadi. Uni birinchi bo‘lib ilmiy iste’molga XVIII asr fransuz faylasufi va siyosatchisi A.Destut de Trasi taklif qilgan bo‘lib, u bu atamani insoniy hissiy tajribadan kelib chiqadigan g‘oyalar doktrinasi sifatida talqin qilgan. Destut de Trasi tabiiy ma’lumotlar kabi “mafkura” ham aniq ilmiy bo‘lishi kerak, deb hisoblagan[3. B. 336].

N.M.Sirota o‘zining “Идеологии в современном мире” asarida mafkurani funksiyalariga e’tibor qaratadi. U “mafkura tomonidan amalga oshiriladigan eng muhim funksiyalarga quyidagilar kiradi: bilim (inson faoliyati ma’nosini izohlash); mobilizatsiya (shaxslar va ijtimoiy guruhlarning birlashuvini ta’minlash); integratsion (siyosiy sotsializm va odamlar uyushmasini amalga oshirish); amortizatsiya (ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish); qonuniylashtiruvchi (hukmronlik sinfida hokimiyat mavjudligi yoki o‘zgarish zarurati sababi). Shu bilan birga, bu funksiyalarning bajarilishi dogma va mutlaqlik kabi mafkuraviy xususiyatlar bilan belgilanadi. Mafkura tarafdorlari ularda mavjud g‘oyalar va qadriyatlarga to‘liq rioya qilishlari kerak”[4. B. 16], - deya izohlaydi. Undan tashqari N.M.Sirota dunyoda “70-yillarda “qayta ideologizatsiya”ga erishish istagi paydo bo‘lganligini, biroq bugungi kunda mafkuralar haqida umumiy yondashuv mavjud emas”[4. B. 17]ligini ham e’tirof etadi.

Y.A.Kokareva o‘zining “Глобализация и национальная безопасность: факторы взаимовлияния” nomli maqolasida jamiyat barqarorligi uchun mafkura zarurligini ta’kidlab, “jamiyat bilan mafkura orqali shaxsni yoki ijtimoiy guruhni identifikatsiyalashning yo‘qligi tartibsizlik, korrupsiyaning yuqori darajasi va boshqalarga olib keladi. Chunki, bunday sharoitda shaxs yoki ijtimoiy guruh o‘z manfaatlarini milliy manfaatlardan ustun qo‘yadi. Shu bilan birga, milliy mafkuraning mavjudligi va faoliyati “begona” mafkuraning zararli ta’siriga qarshi turish va jamiyatning normal rivojlanishini, ayniqsa inqirozlar va tahdidlar sharoitida qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi[5. B. 978-981], deya izohlaydi.

Bugungi kunda mafkura masalasiga bevosita davlat rahbarlarining ham o‘ziga xos yondashuvlari mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan mafkuraga shunday ta’rif beriladi: “Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarash va mintalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko‘zlagan va uning dunyodagi o‘rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lishga qodir g‘oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman”[2. B. 11].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham mafkura masalasiga o‘z e’tiborini qaratib “mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan,

ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti!"[1.], deya ta'kidlaydi.

Xuddi shunga o'xshash fikrlar Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V.Putinda ham uchraydi. U "ideologiya axborot xavfsizligi va mafkuraviy qarama-qarshilik sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlovchi omillardan biridir. To'g'ri rivojlanmagan va umuman olganda qabul qilingan mafkuraning yo'qligi "mafkuraviy vakuum"ni yaratadi, bu xolat jamiyat va davlatning milliy xavfsizligi maqsadlariga zid bo'lishi mumkin bo'lgan "begona" mafkuralar tomonidan to'ldiriladi"[6.], deya ta'kidlaydi.

Mamlakatimizdagi yosh olimlardan biri D.M.Mamatqulovning fikricha, "Mafkura uch tarkibiy qismdan tashkil topadi. Ular:

1. Muayyan tizimga solingan (ilmiy, falsafiy, diniy va boshqa tomondan asoslangan) g'oyalar, kategoriyalar, prinsiplar majmui.
2. Mafkuradagi g'oyalar, kategoriyalar va prinsiplarni jamiyatga tadbiiq etuvchi subektiv omillar (mafkuraviy insitutlar, muassasalar, tashkilotlar).
3. G'oya va kategoriyalarni jamiyatga tadbiiq etish jarayonida qo'llanilgan yo'llar, usullar va vositalardir"[7. B. 143].

Yuqoridagi ta'rif va tahlillardan ko'rinib turibdiki, mafkura juda serqirra ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Ushbu fenomenning turli tomonlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish jamiyatda mafkura amaliyotini to'g'ri yo'lga qo'yishni ta'minlaydi. Binobarin, to'g'ri yo'lga qo'yilgan mafkura amaliyoti jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqa sohalarini rivojlanishiga katta turtki beradi.

Ko'rinib turibdiki hozirda mafkura tushunchasi bo'yicha tahlil va ta'riflar talaygina. Ushbu ta'riflarda umumiylik bilan birgalikda xususiylik, ya'ni, mualliflarning shaxsiy yondashuvlari ham aks etgan. Ta'kidlash kerakki, mafkura tushunchasi fanda ko'p tadqiq etilgan bo'lsada, biroq, hozirda maqolada ishlatilayotgan mafkuraviy kategoriya tushunchasi fanda kam tadqiq qilingan tushuncha hisoblanadi. Mafkuraviy kategoriya tushunchasidan farqli o'laroq kategoriya tushunchasi fan uchun yangilik emas. Jumladan, ushbu tushuncha, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida: "Kategoriyalar (yun.kategoria-muloxaza, fikr, belgi) (falsafada)-voqelikdagi hodisalar va bilishning muhim, umumiy xususiyat hamda munosabatlarni aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalar. Kategoriya bilish va ijtimoiy amaliyot tarixiy taraqqiyotining umumlashgan natijasi bo'lib vujudga kelgan"[8. B. 502-503], deya ta'riflanadi.

Barchamizga ma'lumki, kategoriya tushunchasi qadimdan, asosan, falsafa faniga daxldor tushuncha sifatida tadqiq etilgan. Bu tushuncha doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar ichida, ayniqsa, antik davrning mashhur faylasufi Aristotelning qarashlari diqqatga sazovor.

Aristotelning qarashlarida kategoriyalar – borliqning asosiy turlari va bosqichlariga mos ravishda borliq haqida, uning xususiyatlari va munosabatlari haqidagi tushunchalarning turlari sifatida talqin etiladi[9. B. 262]. Mazkur ta'rif Aristotelning o'ziniki emas, aslini olganda chexialik olim K.Berka ta'kidlaganidek Aristotelning asarlarida kategoriya tushunchasining aniq ta'rifini topib bo'lmaydi[10. B. 1-2].

Ko'rinishidan Aristotel borliq haqidagi ta'limotni yaratish oldidan o'z oldiga borliqning asosiy turlari yoki rivojlanish bosqichlarini kategoriyalar sifatida ajratib olishni maqsad qilib qo'ygan. Lekin, kategoriyalarning o'zaro munosabatlari va aloqalari haqidagi savollar lozim darajada xal etilmaganligi sababli Aristotel kashf etgan kategoriyalar uning asarlarida gohida borliq va bilim, gohida esa, til kategoriyalari sifatida maydonga chiqadi[9. B. 262].

Aristotel o'z asarlarida biz fikr yuritayotgan mafkuraviy kategoriyalarga nisbatan mos keluvchi til kategoriyalari mavjudligini e'tirof etadi. U til kategoriyalarini tahlil qilarkan, ularni ikki guruhini ajratib ko'rsatadi: 1) alohida ajratilgan so'zlar va 2) so'zlarning gapdagi o'zaro aloqalari. Bu aloqalar tushuncha va ifodalar sinflari shaklida namoyon bo'ladi[9. B. 262].

Aristotel tomonidan til kategoriyalarini tahlil qilinishi natijasida ajratilib ko'rsatilgan guruhlar mafkuraviy kategoriyalarning vujudga kelishi, tuzilishini va amaliyotdagi harakatini eslatadi. Binobarin, mafkuraviy kategoriyalar ham birinchidan, alohida ajratib olingan tushunchalar hisoblanadi, ya'ni ular kundalik hayotdan nazariy ong darajasida o'rganilib, muayyan mafkura uchun ajratib olinadi. Ikkinchidan, mafkuraviy kategoriyalar bir-biri bilan o'zaro qonuniy va mutanosib holda bog'langan asosiy tushunchalar hisoblanadi. Mazkur xususiyatlar ularni kundalik ong darajasidagi tushunchalardan farqlanib mafkuraviy kategoriyalar shaklida namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, buyuk faylasuf Aristotelning asarlarida biz nazarda tutayotgan mafkuraviy kategoriyalarga o'xshash jihatlar uchrasada, lekin ularda sof falsafiy kategoriyalar tahlil etilgan. Aristotel tomonidan olib borilgan falsafiy kategoriyalarning tahlillari shu darajada chuqur mazmunga egaki, albatta, ular hozirda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan mafkuraviy kategoriyalarni o'rganish ishi uchun ham metadologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash kerakki, mafkuraviy kategoriyalar fanda kam tadqiq etilgan bo'lsada, ushbu tushunchaga doir yondashuv tadqiqotchi D.M.Mamatqulovning ishida qisman uchraydi. Unda tadqiqotchi, "mafkuraviy kategoriyalar deganda – bu metadologik va dunyoqarash mazmuniga ega bo'lgan, mafkuraviy bilish hamda mafkuraviy amaliyot natijasida vujudga kelib, g'oyaviy

tus olgan va o‘zaro bir-biri bilan qonuniy bog‘langan asosiy tushunchalar tushuniladi. Ushbu tushunchalar kundalik ong natijasida emas, balki nazariy ong natijasida vujudga kelganligi bilan ham oddiy tushunchalardan farqlanadi[11. B. 143], deya ta’rif beradi. Ushbu ta’rifi orqali tadqiqotchi bu orqali hozirda mafkuraviy amaliyotda inson dunyoqarashiga ta’sir ko’rsatuvchi, kishilarga borliq mazmun-mohiyatini tushunishlariga yordam beradigan tushunchalarni yagona bir atama bilan nomlash taklifini beradi”[11. B.143-145].

Mafkuraviy kategoriyalar bo‘yicha bergan yuqorida berilgan ta’rif va takliflar maqolamiz mazmunini yanada boyitadi va ushbu sohadagi tadqiqotlarni yanada chuqirlashtirishga undaydi.

Ta’kidlash kerakki, D.Mamatqulovning mualliflik yondashuvida mafkuraviy kategoriyalar asosan uch turga bo‘linadi. Ular:

1. “Ideal (pozitiv) obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar.
2. Noideal (negativ) obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar.
3. Holat va jarayonlarni ifodalovchi kategoriyalar”[11. B.143-145].

Mafkuraviy kategoriyalarning ushbu tasnifiga qo‘shilish mumkin, lekin, bu yerda ishlatilgan ideal (pozitiv) va noideal (negativ) tushunchalari yanada oddiylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bizningcha, ideal tushunchasidan pozitiv – so‘zini, noideal (negativ) obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar tushunchasi o‘rning esa, butunlay yangi tushuncha dushman obrazlarni ifodalovchi kategoriyalar tushunchasini ishlatilsa, maqsadga muvofiq keladi. Zero, masalaga bu tariqa yondashuv, mafkuraviy kategoriyalar orqali mafkuraviy amaliyotdagi ziddiyatni, borliqning qarama-qarshi mohiyati yanada aniqroq ifodalash imkoni vujudga keladi.

Xulosa qilib aytganda, mafkura tushunchasi bugungi fan uchun ma’lum bo‘lib, xorij hamda yurtimiz olimlari tomonidan chuqur tahlil etilgan. Biroq mafkura tushunchasi chuqur tahlil etilgan bo‘lsada, uning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan mafkuraviy kategoriya tushunchasi siyosatshunoslik fani uchun yangi tushuncha hisoblanadi. To‘g‘ri, mazkur tushunchani asosini tashkil etuvchi mafkura va kategoriya tushunchalari alohida-alohida holda fanda mavjud. Ular o‘z vaqtida tadqiqotchi-olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, shu vaqtga qadar kategoriya tushunchasi asosan falsafa fani doirasida o‘rganilgan va tariflangan.

Lekin, siyosiy va mafkuraviy amaliyotda kishilarning bilishi, baholashi va faoliyat yuritishiga bevosita ta’sir etadigan, dunyoqarash funksiyasiga ega bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi mafkuraviy kategoriya tushunchasi to‘liq o‘rganilmagan.

Hozirda mafkuraviy kategoriya tushunchasini tahlil etilayotganligi nazariy va amaliy jihatdan ilmiy ijodda ham, mafkuraviy amaliyotda ham katta qulayliklarni vujudga keltiradi. Jumladan:

–bu ilmiy ijod jarayonida mafkura va mafkuraviy kategoriyalarga doir keng ko‘lamli tadqiqot ishlarini boshlanishiga turtki beradi;

–mafkuraviy amaliyotda esa, mafkuraviy kategoriya tushunchasi mafkura tarkibida mavjud bo‘ladigan kategoriyalarni kundalik hayotdagi tushunchalardan farqlash imkoni yaratadi;

–mafkuraviy kategoriya tushunchasini anglanishi jamiyatda mafkuraviy amaliyotni nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkillashga olib keladi;

–siyosiy sohada barcha turdagi (ideal obrazlarni, dushman obrazlarni ifodalovchi) mafkuraviy kategoriyalar o‘z funksiyasini bajarishi natijasida kishilarda ideal inson, ideal makon, dushman shaxs va dushman kuchlar to‘g‘risidagi qarashlarni shakllanishiga olib keladi.

Ta’kidlash o‘rinliki, mafkuraviy kategoriyalarga doir ilmiy izlanishlar mafkuraviy amaliyotda milliy mafkurani yanada takomillashuviga olib keladi. Jamiyatning barcha sohasiga milliy mafkuraning ijobiy ta’siri mavjudligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, bu ta’sir albatta siyosiy sohada ham o‘z kuchini ko‘rsatadi. Milliy mafkura va uning kategoriyalarining jamiyat siyosiy sohasiga ta’siri bevosita kishilarda siyosiy madaniyatini rivojlanishida ko‘zga tashlanadi.

IQTIBOSLAR / CHOCKII / REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шаҳрида "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. <http://uza.uz/uz/politics/vatanimiz-ta-diri-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017>
2. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. Тошкент «Ўзбекистон», 1998, 11-б.
3. Дестют де Траси . Основы идеологии. – М.: Академический проект; Альма-Матер, 2013. – 336 с.
4. Сирота Н.М. Идеологии в современном мире. 2013. – С.16.
5. Кокарева Ю. А. Глобализация и национальная безопасность: факторы взаимовлияния // Молодой ученый. 2015. - № 9. – С. 978-981.
6. Путин В.В.: Заключительное слово на заседании Государственного совета «О государственной поддержке традиционной народной культуры в России» / Совет Безопасности РФ. - <http://www.scrf.gov.ru/news/142.html>
7. Маматкулов Д.М. Малака ошириш жараёнида умумтаълим мактаб раҳбарларининг мафкуравий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Пед. фан. бўйича фал. док. ... дис. –Т.: 2018. –143 б.

8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”нашр. №4. 2002. - 502-503-б.
9. Асмус В.Ф. Античная философия. М. “Высшая школа”, 1999. стр.-262.
10. Berka K. Uber einige Probleme der Interpretation der Aristotelischen Kategorienlehre // Acta antique Akademiae scientiarum Hungaricae. – Т. VIII. Fasc. 1-2. Budapest, 1960.
11. Маматкулов Д.М. Малака ошириш жараёнида умумтаълим мактаб раҳбарларининг мафкуравий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Пед. фан. бўйича фал. док. ... дис. –Т.: 2018. –143 б.